XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2023 - yil 4 - aprel VII-47-43-5-74-K/23 Nurota tumani hokimligi

Nurota tuman hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–353-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarorlari ijrosi bo‘yicha Navoiy viloyati Nurota tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risida Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Nurota tuman filiali boshlig‘i E.Ro‘zimurodov va Nurota tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i A.Shokirovlarning axboroti va ma’lumotlariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahaliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-353-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarorlarida ma’muriy-hududiy birlik sifatida qishloqlar va shaharchalar belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy viloyati Nurota tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Nurota tuman filiali boshlig‘i E.Ro‘zimurodov va Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i A.Shokirovlarning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Nurota tuman hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining dastlabki natijalariga ko‘ra umumiy perimetri 447 833,84 metrni, jami yer maydoni 593 628 gektarni, ya'ni, “Sayidato” MFY hududining umumiy perimetri 3 120,26 metr, umumiy maydoni 23,21 gektar;

“Oqmachit” MFY hududining umumiy perimetri 8 950,05 metr, umumiy maydoni 253,51 gektar;

“Istiqbol” MFY hududining umumiy perimetri 6 913,84 metr, umumiy maydoni 117,14 gektar;

“Turko” MFY hududining umumiy perimetri 2 572,85 metr, umumiy maydoni 24,73 gektar;

“A.Navoiy” MFY hududining umumiy perimetri 3 536,87 metr, umumiy maydoni 31,88 gektar;

“Mirishkor” MFY hududining umumiy perimetri 5 559,87 metr, umumiy maydoni 76,63 gektar;

“E.Sudur”MFY hududining umumiy perimetri 5 581,38 metr, umumiy maydoni 101,70 gektar;

“Shahriston” MFY hududining umumiy perimetri 5 255,14 metr, umumiy maydoni 86,38 gektar;

“G‘.G‘ulom” MFY hududining umumiy perimetri 8 343,61 metr, umumiy maydoni 233,23 gektar;

“Bo‘diq” MFY hududining umumiy perimetri 4 028,07 metr, umumiy maydoni 51,11 gektar;

“Ibn Sino”MFY hududining umumiy perimetri 6 083,22 metr, umumiy maydoni 181,31 gektar;

“Nurfaxr” MFY hududining umumiy perimetri 14 812,66 metr, umumiy maydoni 798,60 gektar;

“Mustaqillik” MFY hududining umumiy perimetri 10 677,29 metr, umumiy maydoni 381,94 gektar;

“Yangihayot” MFY hududining umumiy perimetri 114 968,80 metr, umumiy maydoni 32 434,88 gektar;

“Chuya” MFY hududining umumiy perimetri 74 203,58 metr, umumiy maydoni 18 189,23 gektar;

“Qadoq” MFY hududining umumiy perimetri 46 794,10 metr, umumiy maydoni 12 650,67 gektar;

“Jarma” MFY hududining umumiy perimetri 84 631,89 metr, umumiy maydoni 24 091,10 gektar;

“Suvliq” MFY hududining umumiy perimetri 48 020,53 metr, umumiy maydoni 12 796,14 gektar;

“Istiqlol” MFY hududining umumiy perimetri 54 851,08 metr, umumiy maydoni 8 117,61 gektar;

“Yangiturmush” MFY hududining umumiy perimetri 67 181,08 metr, umumiy maydoni 12 651,86 gektar;

“Dehibaland” MFY hududining umumiy perimetri 41 783,43 metr, umumiy maydoni 6 562,50 gektar;

“Avazsoy” MFY hududining umumiy perimetri 99 855,10 metr, umumiy maydoni 26 379,89 gektar;

“Orasoy” MFY hududining umumiy perimetri 93 680,90 metr, umumiy maydoni 24 571,07 gektar;

“Amir Temur” MFY hududining umumiy perimetri 123 927,65 metr, umumiy maydoni 57 691,21 gektar;

“Qizilcha” MFY hududining umumiy perimetri 71 692,49 metr, umumiy maydoni 17 088,72 gektar;

“Sentob” MFY hududining umumiy perimetri 81 960,07 metr, umumiy maydoni 23 712,60 gektar;

“Temirqovuq” MFY hududining umumiy perimetri 171 439,84 metr, umumiy maydoni 141 519,10 gektar;

“Kattasoy” MFY hududining umumiy perimetri 67 109,12 metr, umumiy maydoni 19 748,04 gektar;

“Nurobod” MFY hududining umumiy perimetri 8 094,99 metr, umumiy maydoni 169,47 gektar;

“Tinchlik” MFY hududining umumiy perimetri 143 747,84 metr, umumiy maydoni 134 007,79 gektar;

“Bo‘ston” MFY hududining umumiy perimetri 37 088,65 metr, umumiy maydoni 5 717,37 gektarni tashkil qilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 31 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralari belgilanganligi bo‘yicha xarita ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ushbu qaror “Nurnoma” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Rustamov va tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Vafoyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Fayziyev**